OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING SIYOSIY KOMMUNIKATSIYA SUBYEKTI SIFATIDA ETNO-MILLIY KONFLIKTLARGA TA'SIRI

ВЛИЯНИЕ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ КАК СУБЪЕКТА ПОЛИТИЧЕСКОЙ КОММУНИКАЦИИ НА ЭТНОНАЦИОНАЛЬНЫЕ КОНФЛИКТЫ

THE INFLUENCE OF THE MEDIA AS A SUBJECT OF POLITICAL COMMUNICATION ON ETHNONATIONAL CONFLICTS

AKHMEDOV Yunusjon Sh.,
Military - academic lyceum «Temurbeklar maktabi» of the state security service of the Republic of Uzbekistan, Researcher of the Higher School of strategic Analysis and Foresight.
akhmedov.yunusjon2301@gmail.com
Tashkent city, Yunusabad district, Yangishahar street 3A.

DOI: 10.47980/ПАU/2024/3/10

Annotatsiya*: Ushbu maqolada polietnik davlatlarning eng asosiy muammosi bo'lgan milliy va etnik konfliktlar jarayoniga siyosiy kommunikatsiyaning muhim subyekti bo'lgan ommaviy axborot vositalarining o'ziga xos ta'siri turli mamlakatlar misolida qiyosiy tadqiq etilgan. Etno-milliy konfliktlarning barchasi strukturaviy jihatdan bir-biridan farq qilganligi uchun ularni matbuotda yoritish jarayonida yondoshuvlarning qanday bo'lganligi va ularning natijalari haqida ma'lumotlar taqdim etilgan. Ommaviy axborot vositalarining faoliyati milliy-etnik konfliktlar davomida muayyan qoidalarga asoslanishi lozimligi, aks holda konflikt fazasini o'zgarishiga jiddiy ta'sir etish mumkinligi solishtirma misollar orqali asoslab berilgan. Postsovet mintaqadagi etno-milliy konfliktlarning kelib chiqishidagi o'zaro o'xshashlik misolida ommaviy axborot vositalarining ulardagi ishtirokining salbiy jihatlari, ayrim mamlakatlardagi matbuotda konfliktogen xususiyatga ega ma'lumotlarning e'lon qilinishi oqibatida milliy va etnik barqarorlikka bo'layotgan tahdidlar qiyosiy tahlil qilingan.*

Maqolada ommaviy axborot vositalarining polietnik mamlakatlardagi milliy barqarorlikka destruktiv ta'sir o'tkazmasliklari uchun amal qilishi mumkin bo'lgan ba'zi tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularga rioya qilish orqali etno-milliy muhitni sog'lomlashtirish imkoniyati yuzaga kelishi asoslangan. Polietnik mamlakatlardagi ommaviy axborot vositalarining milliy-etnik konfliktlar davridagi samarali faoliyatidagi o'ziga xos jihatlar mamlakatlarning hududiy yaxlitligi, siyosiy barqarorligini saqlab qolishga yordam berganligiga alohida e'tibor qaratilgan. Etnik mavzuda axborot yetkazuvchi manbalarning faoliyatida axborot oluvchilar tafakkurida konstruktiv qarashlarni shakllantirishni maqsad qilgan ma'lumotlar yetkazishning ahamiyati, etnojurnalistika prinsiplariga rioya qilishning muhim ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilingan.

Polietnik mamlakatlardagi siyosiy tizim elementlarini samarali ishlashi uchun ommaviy axborot vositalarining bajarishi lozim bo'lgan asosiy vazifalari mazmuni, ularni amalga oshirishda konfliktogen muhitni yuzaga keltirishdan saqlanishning ahamiyati muhokama qilingan. Ommaviy axborot vositalarining etno-milliy konfliktlarga ta'sirining konstruktiv va destruktiv jihatlariga yondoshuvni ko'rsatish bilan bir qatorda qanday holatlarda matbuot o'zining konstruktiv funksiyasini saqlab qolishi mumkinligiga oid takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: *Globallashuv, etno-milliy konfliktlar, ommaviy axborot vositalari, siyosiy kommunikatsiya, hududiy yaxlitlik, axborot, siyosiy barqarorlik, siyosiy beqarorlik, geopolitik maqsadlar, polietnik mamlakatlar, konfliktogen muhit.*

Аннотация: *В данной статье на примере разных стран методом сравнительного анализа исследуется специфическое влияние средств массовой информации, которые являются важным субъектом политической коммуникации, оказывающим влияние на течение процессов национальных и этнических конфликтов, что является основной проблемой полиэтнических государств. Поскольку все этно-национальные конфликты структурно отличаются друг от друга, в статье приводится важная информация о подходах к разрешению подобных конфликтов и их результативности в процессе освещения их в прессе. Сравнением примеров обосновано, что деятельность средств массовой информации во время национально-этнических конфликтов должна основываться на определенных правилах, иначе можно оказать серьезное влияние на смену фазы конфликта. В качестве примера взаимного сходства зарождения этно-национальных конфликтов на постсоветском пространстве показаны негативные аспекты участия в них средств массовой информации; так, например, в результате публикации конфликтогенной информации возникли угрозы национальной и этнической стабильности. Проведен сравнительный анализ действия средств массовой информации некоторых стран в ходе этно-национальных конфликтов. В статье разрабатываются некоторые рекомендации, которым можно следовать, чтобы средства массовой информации не оказывали деструктивного воздействия на национальную стабильность в полиэтнических странах, и основаны они на том, что, следуя им, есть шанс оздоровить этно-национальную среду.*

Особое внимание уделено тому, что эффективная деятельность средств массовой информации в полиэтнических странах в период национально-этнических конфликтов способствовала сохранению территориальной целостности и политической стабильности государства. Проанализирована важность предоставления информации, направленной на формирование конструктивных взглядов, толерантного мышления у адресатов информации. Отмечается важное значения соблюдения принципов этножурналистики в процессе распространения информации по этническим темам. Обсуждается *содержание основных задач, которые должны выполнять средства массовой информации для эффективного функционирования элементов политической системы в полиэтнических странах, а также важность недопущения создания конфликтогенной среды при их реализации. Помимо освещения сущностных характеристик конструктивных и деструктивных аспектов влияния средств массовой информации на этно-национальные конфликты, выведены предложения и рекомендации о том, способах сохранения прессой своей конструктивной функции.*

Ключевые слова: *Глобализация, этно-национальные конфликты, средства массовой информации, политическая коммуникация, территориальная целостность, информация, политическая стабильность, политическая нестабильность, геополитические цели, полиэтнические страны, конфликтная среда.*

Abstract: *In this article, the specific influence of mass media, which is an important subject of political communication, on the process of national and ethnic conflicts, which is the main problem of multi-ethnic states, is comparatively studied on the example of different countries. Since all ethno-national conflicts are structurally different from each other, in the process of covering them in the press, information was provided about the approaches and their results. It is justified by comparative examples that the activity of mass media should be based on certain rules during national-ethnic conflicts, otherwise it is possible to have a serious influence on the change of the phase of the conflict. As an example of mutual similarity in the origin of ethno-national conflicts in the post-Soviet region, the negative aspects of the mass media's participation in them, the threats to national and ethnic stability due to the publication of information of a conflictogenic environment in the press in some countries are comparatively analyzed.*

In this article, there are figered out some recommendations that can be followed that the mass media do not have a destructive effect on national stability in multi-ethnic countries, and it is based on the fact that by following them, there is a chance to heal the ethno-national environment. Particular attention is paid to the fact that the specific aspects of the effective activity of mass media in multi-ethnic countries during the period of national-ethnic conflicts helped to preserve the territorial integrity and political stability of the countries. It was analyzed the importance of providing information aimed at forming constructive views in the thinking of information recipients in the activity of information sources on the ethnic topic, and the importance of observing the principles of ethno-journalism.

The content of the main tasks that the mass media should perform for the effective functioning of the elements of the political system in multi-ethnic countries, and the importance of avoiding creating a conflict-causing environment during their implementation were discussed. In addition to showing an approach to the constructive and destructive aspects of the influence of the mass media on ethno-national conflicts, suggestions are made on how the press can preserve its constructive function.

Key words: *Globalization, ethno-national conflicts, mass media, political communication, territorial integrity, information, political stability, political instability, geopolitical goals, multi-ethnic countries, conflict environment.*

KIRISH

Insoniyat tarixiga e'tibor berilsa turli xarakterdagi konfliktlar bo'lgan. Ular orasida milliy va etnik konfliktlar alohida o'rin tutadi. E'tibor berilsa etnik va milliy ziddiyatlar o'zining emotsional va keskinligi jihatidan biror-bir urushlardan qolishmaydi. Globallashuv sharoitida etnik va milliy konfliktlar pasayish o'rniga, umuman yangi xarakterga ega bo'la boshladi. Globallashuv ko'pmillatlilik va etnik xilma-xillik muhitini oddiy holga aylantirib qo'ydi. Shuning uchun bugun kishilarning milliy munosabatlari yuzasidan kelib chiqadigan konfliktlar Yer yuzining deyarli barcha mintaqalarida uchray boshladi. Postsovet mintaqadgi davlatlarda milliy va etnik xarakterdagi ziddiyatlar globallashuv sharoitida o'ziga xos tarzda ko'zga tashlana boshladi. Bu mintaqadagi milliy va etnik ziddiyatlarning asosiy sabablari sifatida ijtimoiy keskinlikning o'sishi, iqtisodiy inqirozlar, o'tmishdagi g'oyaviy qadriyatlarning barham topishi natijasida yangi siyosiy kurashlarning alohida tusga kirishlarini ko'rsatish mumkin. Globallashuv jarayonlari etnosiyosiy va milliy konfliktlarni ijtimoiy reallikning uzilmas bo'lagiga aylantirdi va ularga e'tiborsizlik jiddiy oqibatlarga olib kelishini hayotning o'zi ko'rsatib bormoqda.

Bunday vaziyatda milliy va etnik ziddiyatlarni oldini olishni barcha vositalaridan foydalanishning dolzarbligi oshib bormoqda. Siyosiy kommunikatsiyaning asosiy subyekti bo'lgan ommaviy axborot vositalaridan foydalanib etno-milliy konfliktlarni oldini olish, faollik fazasini pasaytirish polietnik mamlakatlarning tajribasida yettarlicha uchrayidi. Lekin masalaning

ikkinchi tomoni axborot jamiyatida ommaviy axborot vositalaridan milliy va etnik ziddiyatlarni avj oldirish, faollik fazasini oshirishga qaratilgan jarayonlar ham uchraydi. Bu jarayonlar ba'zan geopolitik maqsadlarda tashqi siyosiy kuchlar tomonidan amalga oshirilsa, ba'zan polietnik mamlakatlardagi titul millat vakillaridan tashkil topgan siyosiy hukmron elita tomonidan ham o'tkaziladi. Mazkur holatlarni kuzatish orqali polietnik O'zbekiston uchun ham ommaviy axborot vositalarining milliy va etnik ziddiyatlarni oldini olish, mamlakatda milliy barqarorlikni yanada mustahkamlash, mamlakatda kishilar ongida milliy tolerantlikni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy funksiyani ado etishga yo'naltirilgan mas'uliyatli vazifani bajarishi lozimligi dolzarb masalaga aylandi.

USLUBLAR

Globallashuv bilan bir vaqtda "axborot jamiyati" shakllandi, endi axborotni qayta ishlash va uzatish texnologiyalarining rivojlanishi, global darajadagi kompyuterlashuv va keng tarmoqli axborot tizimlarining paydo bo'lishi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga kuchli ta'sir o'tkaza boshladi. Axborotni uzatishning qulay usullari, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar subyektlari tomonidan axborotni olish imkoniyatlarini kengayishi siyosiy yoki boshqa xarakterdagi konfliktlarni keltirib chiqarish, ularga tobora kengroq ommani jalb qilish, bunday konfliktlardan muayyan maqsadlarni ko'zlagan aktorlarga ham qo'l kela boshladi (Tishkov B., Shabayev Yu., 12:4). Axborot tarqatishni usullari va vositalari osha borgan sari globallashuv jarayonlarida konfliktlarning yangi, o'ziga xos ko'rinishlari ham kelib chiqa boshladi.

Shu sohadagi ilmiy tadqiqotlar xulosalariga e'tibor berilsa etnosiyosiy va milliy konfliktlarning vujudga kelishi, faol fazaga kirishi yoki mavjud etnosiyosiy hamda milliy xarakterdagi konfliktlarni oldini olish, yumshatish yoki to'xtatishda iqtisodiy, ijtimoiy omillardan tashqari siyosiy kommunikatsiyaning asosiy subyekti bo'lgan ommaviy axborot vositalarining ham ta'sir kuchi tobora oshib bormoqda. Chunki globallashuv sharoitida ommaviy axborot vositalari jamoatchilik tasavvurini shakllantirishning qudratli instrumentiga aylandi va davlatlar hayotidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning teng huquqli ishtirokchisi maqomiga ega bo'la boshladi.

Bugungu kunda globallashuv fenomenining har xil jihatlari hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Zotan globallashuv integratsion jarayonlarning sifat jihatdan yangi bosqichini keltirib chiqardi, jahon mamlakatlarining o'zaro bog'liq ekanligi yaqqol ko'zga tashlanib qoldi. Lekin globallashuv sharoitida o'z davlatchiligiga ega bo'lmagan muayyan xalqlar va millatlar o'ziga xosliklari, madaniyati, tillari, urf-odatlarini mustaqil hudud doirasida tiklashga harakat qila boshladilar. Mana shunday sharoitda milliy, etnik xarakterdagi mojarolar kelib chiqish xavfi ortadi. Bunday mojarolar kelib chiqish jarayoni tezlashishi, yoki oldini olishda ommaviy axborot vositalari yo konstruktiv, yoki destruktiv ta'sir kuchiga ega bo'lishi mumkin.

Insoniyatning Ikkinchi jahon urushidan keyingi tarixiga e'tibor berilsa urushdan keyin to hozirgi kungacha 100 dan ortiq qurolli konfliktlar bo'lib o'tgan. Bu konfliktlarning aksariyati milliy-etnik konfliktlardan iborat (Esenov, 16:12). Bu konfliktlar oqibatida mamlakatlarning xavfsizligi, hududiy yaxlitligiga tahdid paydo vujudga keldi, ular keskin tus olganda qonli urushlar, inson huquqlarining keskin buzilishi vujudga keldi. Mamlakatlarning iqtisodiy qudratiga jiddiy zarbalar berilgan. Bunday vaziyatda ommaviy axborot vositalarining etnik va milliy munosabatlarga turli yo'nalishlarda yondoshuvi amalga oshib ular kishilarni bu jarayonlar haqida ma'lumotlar bilan ta'minlashdan tashqari ularning voqealar jarayoniga nisbatan omaviy tasavvurlarini ham shakllantirdilar. Mazkur jarayonda ommaviy axborot vositalarini etnik mavzudagi axborotni tolerantlik ruhida yoki intolerant kayfiyatda yoritganligi ommaning qarashlariga, etnik masalaga munosabatiga, ularning ruhiyatiga jiddiy ta'sir o'tkazgan. Ilgari surilayotgan muammolar xorijiy siyosatshunoslikda doimiy ravishda tadqiqotlarning markazida bo'lib keldi. Ayniqsa, bu masalani o'rganishga e'tibor polietnik mamlakatlarda jiddiy tus olgan.

Kardiff universiteti professori Simon Kottl rahbarligida 2000 yili "Etnik ozchilik va ommaviy axborot vositalari" nomli to'plamning nashrdan chiqarilishi va bu to'plamning qator polietnik mamlakatlarda ham tarqalishi ommaviy axborot vositalarining etnik masalaga alohida yondoshuvi lozimligiga ta'sir eta boshladi (Cottle S., 19).

Globallashuv davrida mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy-madaniy unifikatsiyalashuv yuzaga chiqadi, lekin to'plamda keltirilgan ma'lumotlarda shovinizm, irqchilik, milliy ozchilikning huquqlarini buzilishi kabi salbiy holatlar hamon davom etayotganligi qayd etilgan. To'plamda o'z tadqiqotlari xulosalarini bayon etgan mualliflar ommaviy axborot vositalarida ham vaqt-vaqti bilan mazkur muammo ko'zga tashlanib qolayotganligidan tashvish bildirishadi. Ular o'z tadqiqotlarida etnojurnalistika bilan shug'ullanadigan

mutaxassislarga irqchilik, shovinistik, milliy ozchilikning ruhiy-emotsional holatlariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ma'lumotlarni ommaga yetkazmaslikka da'vat etishadi. Ularning fikricha, ba'zan bu sohadagi ma'lumotlardan xabardor bo'lmaslik multikulturalizm ideyasini amalga oshirishda juda qo'l keladi (Cottle S.,19).

Amsterdam universitetida tadqiqotlar olib borgan professor Teun van Deyk o'zining "Racism end the press" nomi bilan xulosalarini 1991 yili nashrdan chiqaradi. Keyinchalik ommaviy axborot vositalarida tolerantlikni targ'ib etishga qaratilgan tadqiqotlar natijalarini Britaniya, Finlyandiya va Daniyada A. Tompson, K. Xorsti va M. Huseyn kabi tadqiqotchilar ham e'lon qilishadi. Ularning tadqiqotlari natijasi multikulturalizm g'oyasini targ'ib etayotgan Yevropa uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi (Esenov, 16:14).

Yuqorida nomlari keltirilgan tadqiqotchilar xulosalariga e'tibor berilsa polietnik muhitda ommaning tafakkuriga beriladigan axborot matni: etnik birliklar hayotidan olingan maxsus tanlab olingan faktlar, etnik stereotiplar, etnik ideyalar va ideologemalar kabi uch tarkibiy qismdan iborat bo'ladi. Ommaviy axborot vositalarida jurnalistlar tomonidan etnik birliklar hayotidan maxsus tanlab olingan faktlar jamiyatda tolerant yoki intolerant ruhda qabul qilinishi mumkin. Etnik stereotiplarning turli shakllarda namoyon bo'lishi esa, muayyan bir millat yoki etnik guruhga nisbatan munosabatni shakllantiruvchi faktor rolini ijro etadi (Malkov, 7:2). Ommaviy axborot vositalari esa bu omilni inobatga olib polietnik muhitda turli etnik guruhga nisbatan noto'g'ri qarashlarni shakllanishini oldini olishi kerak.

Yuqorida nomlari keltirilgan mualliflar "Ommaviy axborot vositalarining tolerantlik diagnostikasi" nomi ostida kontent-tahlil o'tkazib va poletnik jamiyatni integratsiyaga chorlaydigan, poletnik muhit haqida pozitiv axborot beradigan, milliy va diniy bag'rikenglikni targ'ib etadigan ideologemalardan foydalanishni tavsiya etishadi. Aksincha millatlarni o'tmishi bilan bog'liq ayblovlar, etnoslar o'rtasidagi alamli munosabatlar, etnik o'ziga xoslikka nisbatan hurmatsizlikka yo'l qo'yilishi bilan polietnik mamlakatlarda etno-milliy vaziyat taranglik tusini olishi mumkinligini qayd etishadi (Van Dijk, 21:2).

Ma'lumki, G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada XX asrning oxiridan boshlab migrantlarning kelish jarayoni kuchaydi. Natijada bu mintaqalardagi mamlakatlarda ham o'ziga xos tarzda polietnik va ko'pkonfessiyali ijtimoiy muhit vujudga keldi. Ommaviy axborot vositalaridagi xabarlarda mazkur holatni ifodalashga turlicha yondoshuvlar shakllandi. Teun van Deyk mazkur holatni tanqidiy o'rganadi hamda qator ommaviy axborot vositalarini jamoatchilik tafakkurida "begonalar" obrazini shakllantirishga urinishi jiddiy muammolarga sabab bo'lishini aytib o'tadi (van Dijk. 21:3). U ingliz matbuotida "Britain invaded bu an army of illegals" (Britaniyaga nelegallar armiyasi bostirib kirdi), "An "army" of illegal immigrants is arriving in the UK every year" (van Dijk, 22:1) (Buyuk Britaniyaga har yili nelegallar armiyasi kirib kelmoqda) kabi metaforalardan foydalanish migrantlar kirib kelishini harbiy hujumga o'xshatib jamoatchilik tasavvurida migrantlar, umuman mamlakatga kelgan boshqa etnik birliklarga nisbatan negativ kayfiyat hosil bo'layotganligidan tashvishga tushadi (van Dijk, 22:1).

Globallashuv sharoitida siyosiy kommunikatsiyaning asosiy subyekti bo'lgan ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlari nihoyatda oshgan davrda muayyan xalq, millat yoki etnik guruhlarning ongiga boshqa shunday guruhlarga nisbatan toqatsizlik, o'zining ijtimoiy-iqtisodiy, yoki boshqa xarakterdagi muammolariga o'zga milliy-etnik guruhni, shunday guruhga mansub siyosiy yetakchilar "aybdor" degan qarshlarni singdirishning yangi "usullari"ni ishlab chiqish osonlashdi. Ommaga o'z fikri, qarashlarini yetkazishning usullari ko'paygan sharoitda jamoatchilik nazaridagi subyektlarning irqiy, diniy, milliy va etnik mavzularga tegishli so'zlari, qarashlari yoki xatti-harakatlari ham bunday xarakterdagi konfliktlarni avj olishi, yoki pasayishiga olib kela boshladi.

USLUBLAR

Postsovet mintaqadagi mamlakatlarda milliy va etnik munosabatlarning shakllanishi ham o'ziga xos tarzda kechgani va bu jarayonni ommaviy axborot vositalari tomonidan yoritilishi ham turlicha kechgani, natijada ommaviy axborot vositalarini etno-milliy munosabatlarga turlicha ta'sir o'tkazganligi masalasi ham diqqatga sazovor. Markaziy Osiyo respublikalaridagi matbuotda ayniqsa mintaqadagi xalqlarning etnik kelib chiqishi tarixiga oid mavzu nihoyatda ommaviy tus oldi. Bu jarayon ilmiy adabiyotlar va tarix darsliklariga ham ko'chib masalani muhokamasi ilmiy doiralardan tortib siyosatchilargacha qamrab oldi. Polietnik mintaqa bo'lgan Markaziy Osiyo uchun bunday ideyalar nihoyatda xavfli bo'lib, amaldagi nisbiy barqarorlikka jiddiy tahdid solishi mumkin. Mazkur muammo E. Rtveladze va A. Sagdullayev tomonidan 2006 yilda chiqarilgan "O'rta Osiyo xalqlarining qadim o'tmishiga oid zamonaviy

rivoyatlar” («Современные мифы о далеком прошлом народов Центральной Азии») risolada ham ko‘rsatib o‘tildi. Mazkur risola nashrdan chiqqach deyarli barcha respublikalarda jamoatchilikning keng muhokamasiga sabab bo‘ldi. Mualliflar respublikalardagi matbuot va ilmiy jamoatchilikni rivoyatlarni tarixiy manba sifatida qo‘llashda, o‘z xalqini qadimgi yoki o‘rta asrlardagi “oltin asri”ni tashviq qilish, mintaqaning taraqqiyotiga barcha xalq va millatlarning hissasi birdek bo‘lganini rad etish, muayyan bir xalqni madaniy ustunligini ko‘rsatishga intilish, mintaqadagi qaysi xalq qadimiyroq va bu yerda kimlar oldinroq o‘z shahar va davlatlarini barpo etishgan, degan masalani yoritishga keng e’tibor qaratayotganiga tanqidiy yondoshishgan hamda bu yondoshuvlar mintaqa uchun xavfli ekanligini aniq misollar bilan ko‘rsatib o‘tishgan (Ртвеладзе, Сагдуллаев, 10:12).

Rossiyalik siyosatshunos Vyacheslav Lixachyov o‘zining tadqiqotlarida Rossiyadagi muxolifat matbuotida milliy va etnik barqarorlikka jiddiy tahdid solayotgan materiallarning strukturasini o‘rganishga e’tibor beradi. Uning fikricha, muxolif matbuotda o‘z maqolalari bilan ishtirok etayotgan mualliflarni umumlashtirib turuvchi “o‘tmishdagi buyuk imperiya” va “sharmandali bugungi davlat” degan yagona g‘oya bor. Ularning aksari maqolalarida amerikaliklar, G‘arb mamlakatlari asosiy “dushman” degan, kayfiyat tez-tez uchraydi, Janubiy-Sharqiy va Markaziy Osiyodan kelganlar, kavkazliklar, diniy nuqtai nazardan katoliklar, musulmonlar haqida ham salbiy fikrlar nashr etib turiladi (Lixachyov, 6:84). Murakkab-federativ tuzilishdagi davlat bo‘lgan Rossiya uchun matbuotda shunday ruhdagi maqolalarni tarqalishi o‘ta xavfli hisoblanadi. Aksariyat bunday maqolalarda rus xalqi bag‘rikeng, “begonalar” esa agressiv holda tasvirlanadi, “rus xalqi bag‘rikengligidan ularga qarshi hech qanday yomon harakatlarni sodir etmaydi”, degan aqidani ommaviy axborot vositalaridan joy olishi muallif fikricha milliy barqarorlik uchun halokatli ta’sir o‘tkazadi (Lixachyov, 6:86).

MUHOKAMA

Globallashuv sharoitida axborot yordamida har qanday siyosiy maqsadga erishishning imkoniyat darajasi oshib bormoqda. Milliy va etnik masala siyosiy tus olgan joyda axborotni tarqatishning maqsadlari ham o‘zgaradi. Natijada milliy va etnik ziddiyatlarni yuzaga keltirish orqali siyosiy hokimiyatga intiluvchi kuchlarning faoliyati aynan axborotning o‘zlariga maqbul variantlarini iste’molchilarga yetkazishga qaratiladi. Globallashuv sharoitida siyosiy kommunikatsiyaning asosiy subyekti bo‘lgan ommaviy axborot vositalaridan milliy va etnik munosabatlarda asosan salbiy maqasadlarda foydalaniladi degan fikrga borish ham to‘g‘ri emas. Globallashuv davrida polietnik mamlakatlarda ommaviy axborot vositalarining funksiyalaridan to‘g‘ri va samarali foydalanish orqali milliy va etnik barqaror muhit yaratish imkoniyati ham oshib boradi. Masalaning bu jihatini qator polietnik mamlakatlar tajribasidan ham ko‘rish mumkin. Masalan, Sudan Respublikasi milliy va etnik konfliktlar natijasida 2011 yili ikkiga bo‘linadi. Shuning uchun mamlakatda jurnalistlarning bu masalaga o‘ziga xos yondoshuvi shakllandi. 1955 yilda boshlangan Shimoliy va Janubiy Sudan o‘rtasidagi etno-konfessional urush tanafusslar bilan 2011 yilgacha davom etdi. Bu diniy konfessional to‘qnashuv arablashgan shimol va an’anaviy diniy qarashlarini saqlab qolgan janub o‘rtasida bo‘lib o‘tdi. Oqibatda Shimol siyosiy elitasining Janubiy Sudan aholisi yo arab, yo musulmon bo‘lishi zarur, hech qachon afrikalik, animist yoki xristian bo‘lishi mumkin emas degan da’volari natija bermadi, xalqaro hamjamiyat nazoratida o‘tkazilgan plebissitda Janubiy Sudan aholisi Sudan davlati tarkibidan ajralib chiqishni yoqlab ovoz berdi.

Sudan jurnalistlar mamlakatdagi etnokonfessional konfliktni sharhlashda asosan harbiy harakatlarni borishiga urug‘u berishdan tashqari konfliktni tugatish yo‘llari, uni bartaraf etish uchun qo‘yilayotgan qadamlar haqida yozishgan. “al-Intixaba”, “as-Sudani” kabi obro‘li gazetalarda asosan tahliliy va publitsistik maqolalar berilgan (Klusova, 5:10). Ular etnokonfessional ziddiyatga nisbatan axborot tarqatuvchi manba bo‘libgina qolmasdan, matbuotning asosan tarbiyaviy funksiyasini amalga oshirishga ko‘pchilik bo‘lib harakat qilishgan.

Ommaviy axborot vositalarini milliy va etnik munosabatlarni yoritish muammosini tadqiq etgan bir qator mutaxassislarning fikricha etno-milliy ziddiyatlar turli mamlakatlarda turlicha namoyon bo‘lishi, ularning har biri o‘ziga xos xususiyat kasb etishidan kelib chiqib ba’zan bunday ziddiyatlarni matbuotda yoritishni cheklash, yoki bu haqda umuman axborot tarqatmaslik jamoatchilikning voqeaga nisbatan e’tiborini pasayishiga olib keladi, muammoning esa yuqori fazalarga chiqishinihg oldini oladi. Sankt-Peterburg davlat universiteti xalqaro jurnalistika fakulteti dotsenti Ruslan Bekurov fikricha “information vakuum”ni hosil qilish milliy va etnik xarakterda lokal va mintaqaviy

konfliktlarni bartaraf etishning ehtimoliy mexanizmi bo‘lishi ham mumkin (Bekurov, 18:28). U o‘zining tadqiqotlari natijasida shunday xulosaga keladiki, konfliktlar haqidagi ma’lumot muayyan qimmatga ega bo‘lmasada, uning xavflilik darajasi yuqori bo‘lishi mumkin.

Rossiya Federatsiyasida 1992-yili osetinlar va ingushlar o‘rtasidagi milliy mojaro boshlanishi dastlab juda oddiy kechgan. Hukumatning “Qatag‘onga uchragan xalqlar reabilitatsiyasi tog‘risida”gi Qonuni ingushlarga qo‘shnilarining yerlarini egallab olish uchun asos bo‘lgan (17:1). Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bunday xatti-harakat 1981 yili Shimoliy Osetiyaning Prigorod rayonida ham sodir bo‘lgan, lekin o‘sha davr matbuoti bu voqeani yoritmagan, axborotning mavjudligi bu mojaroni tezlik bilan tugashiga olib kelgan (Bekurov, 18:12).

Bekurov fikricha, Rossiyadagi obro‘li nashr bo‘lgan “Izvestiya” gazetasida 1993-yili 6-avgustda e’lon qilingan “Shimoliy Osetiyaning Prigorod tumanidagi yangi qurbonlar” («Новые жертвы в Пригородном районе Северной Осетии»), 1994-yili 29 yanvarda e’lon qilingan “Shimoliy Osetiya Prigorod rayonining urush va tinchligi. Muzokaralar to‘xtatildi” («Война и мир Пригородного района Северной Осетии. Переговоры прерваны») maqolalar mintaqadagi milliy mojaroning keskinlashuviga muayyan darajada “xizmat” qilgan (Chibirov, 14:2). Maqolalar muallifi I. Dementyev ingush xalqining Shimoliy Osetiyada tinch hayot kechirish huquqi haqida yozar ekan “getto”, “filtratsion lagerlar” iborasini ishlatadi, maqolalarda asosan ingushlar tomonidan berilgan qurbonlar haqida ma’lumotlarni keltirilishi ingush jamoatchiligi orasida katta rezonansga sabab bo‘ladi (Bekurov, 18:16). Bunday vaziyatni kuzatar ekanmiz ommaviy axborot vositalarida milliy va etnik munosabatlar, etnik konfliktlar haqida jurnalistlarga to‘liq erkinlikni hama vaqt ham berib qo‘yilishi kutilmagan muammolarni keltirib chiqarishiga ishonsa bo‘ladi.

Xuddi shunday misolni Shimoliy Irlandiyadagi etnokonfessional mojaroda ham kuzatish mumkin. BBC jurnalisti Denis Myurrey yozishicha 1970-yillarda Shimoliy Irlandiyada “agar jurnalistlar televideniyada mojaro haqida turli xabarlar tarqatishmaganda voqealar chigallashib ketmasdi”, degan fikr jamoatchilik orasida hukmron bo‘lgan. Margaret Tetcher boshchiligidagi konservatorlar hukumati 1979-yilda hokimiyat tepasiga kelgandan keyin mavjud vaziyatni tezda tushunib yetishgan hamda ommaviy axborot vositalarini Shimoliy Irlandiya muammosini yoritishiga muayyan “chegara” qo‘ygan, telekanallarda bu haqdagi ma’lumotlar keskin kamayib borgan. Myurreyning o‘zi ham etnokonfessional konfliktlarni yoritishni cheklash amaliyotiga qarshi bo‘lsada, lekin bu amaliyot aynan Shimoliy Irlandiya misolida konfliktni fonini o‘ziga xos ravishda pasayishiga yordam berganini yozadi (Myurrey, 22:2).

TAHLIL

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki etno-milliy mojarolar ijtimoiy-siyosiy konfliktlarning muayyan ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, ziddiyat ishtirokchilarining hech bo‘lmaganda bir tomoni o‘zini boshqa tomonlarga nisbatan etnik va konfessional kategoriyada qarama-qarshi qo‘yadi (Achkasov, 1:12). Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, konflikt atrofida muayyan bir millat yoki etnik guruh birlasha boshlasa u murakkab tus olib yechimini topish qiyinlashib ketadi.

Ommaviy axborot vositalarida etno-milliy mojarolarni yoritish amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, bunday konfliktlarni to‘la obyektiv yoritishning deyarli imkoni yo‘q. Aksincha konfliktni yoritish ba’zan tomonlar o‘rtasida ziddiyatlarni yanada chuqurlashtiradi. Shuning uchun ommaviy axborot vositalarining xodimlari etno-milliy konfliklarni yoritishdan oldin hodisalarni yoritishning strategiyasini chuqur o‘ylab olishlari lozim, toki bu jarayonda xatolikka yo‘l qo‘yib konfliktning eskalatsiyasiga muayyan ma’noda “hissa” qo‘yishdan tiyilishlari kerak. Etno-miliy konfliktlar mavzusida axborot tayyorlayotgan jurnalistlar esa shuni alohida e’tiborga olishlari lozimki, konflikt aynan qaysi bosqichda turibdi, konfliktning muayyan bosqichida auditoriya unga qanday munosabatda, beriladigan jurnalistik material jamoatchilikda qanday tasavvurlar uyg‘otishi mumkinligi oldindan tahlil etilishi kerak.

Globallashuv axborotni eng qimmat tovarga aylantirgan davrda ommaviy axborot vositalarining shakllari ham tobora ko‘paymoqda. Omma axborotni nafaqat an’anaviy axborot tarqatuvchi manbalardan balki internet tarmog‘idan ko‘proq ola boshladi. Bunday muhit yuzaga kelishi oqibatida internet tarmog‘i orqali yetkaziladigan axborot shakli, usuli, tezligi va boshqa imkoniyatlari ortdi. Endi axborot tarqatuvchi manbalarni faoliyatini huquqiy nazorat qilishning imkoniyatlari ham pasayib borish bilan bir qatorda tarmoqlardagi axborotlarda jurnalistik etika va prinsiplarga riyo etish haqida gapirish imkoniyati pasaydi. Shu bilan bir qatorda ommani konfliktlarning eng murakkabi bo‘lmish etnik va milliy ziddiyatlardan xabardor qilishning

urg‘u beradigan boshqa jihati ham mavjud. Siyosiy kommunikatsiyaning eng soda modelidagi birinchi savol “axborot manbasi kim?”, degan masalaga ham alohida e’tibor berish lozim (Xubetsova, 13:5). Agar axborot tarqatuvchi manba konflikt eskalatsiyasidan siyosiy maqsadlarni ko‘zlasa axborot tarqatishning me’yorlarini buzish ehtimoli oshadi.

Siyosiy kommuniktasiyaning modelining keyingi savollari “nimani yetkazmoqda?”, “qaysi kanallar orqali?”, “kimga?”, “qanday natija bilan?” kabilarga e’tibor bersangiz bu modelni polietnik davlatlarda mamlakat siyosiy barqarorligiga xayrixoh kuchlar ham, aksincha siyosiy hokimiyatga intiluvchi kuchlar, geopolitik o‘yinchilar ham maqsadga erishishning qulay vositasi sifatida foydalanishlari mumkin (Chudinov, 15:5). Bunday vaziyatda ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar maqsadga erishishning bevosita ishtirokchisiga aylanishadi.

Polietnik mamlakatlar axborot asrida o‘zlarining siyosiy barqarorligini saqlash imkniyatini oshirishlari uchun ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy madaniy xarakterdagi qator chora tadbirlarni tizimli amalga oshirishlari lozim. Tadqiqotchilar fikricha, ularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin. Avvalo, polietnik davlatlarning siyosiy tizimi elementlari o‘z funksiyasini samarali ado etishi kerak, chunki siyosiy tizimning elementlari mamlakat hukmron doiralarining imijini yaratib beradi, ularga nisbatan ommada ishonch yoki ishonchsizlikni paydo bo‘lishi siyosiy tizim elementlariga bog‘liq. Ommaviy axborot vositalari esa siyosiy tizim elementlarini faoliyatini obyektiv yoritib borish orqali jamiyatning etno-milliy barqarorligiga o‘z hissasini qo‘shish imkoniyatini qo‘ldan boy bermasligi kerak.

Ikkinchidan, polietnik mamlakatlardagi barcha milliy va etnik guruhlar tenghuquqliligini kafotlaydigan huquqiy normalari amalda ham o‘zini namoyon etishi kerak. Bu jarayonlarni yoritishda ham matbuot o‘ziga xos faollik ko‘rsatishi foydadan xoli bo‘lmaydi.

Uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari ham milliy etnik barqarorlikka yo‘naltirilgan faoliyatni olib borishi va bundan ommani xabardor qilish zarurati yuzaga keladi. Mamlakatdagi ideologlar, siyosatchilar, siyosiy partiyalar yetkchilari milliy tolerantlik muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan murojaatlardan tiyilishi, yoki siyosiy maqsadga erishishda bunday imkoniyatlardan foydalanmasliklari lozim. Ularning bunday masalada yo‘l qo‘ygan xatoliklari ommani tasavvurini juda tez o‘zgarishiga olib keladi. Misol tariqasida Turkiya Respublikasidagi saylovlarda siyosiy liderlarning dasturlarida aynan milliy masalani hal etishga yondoshuvlarni doimiy matbuot tomonidan yoritilishi mamlakatdagi etno-milliy muhitga salbiy ta’sir o‘tkazayotganini ko‘rsatib o‘tishimiz lozim (Morozova, 8:2).

Polietnik mamlakatlarning ko‘pchiligida ommaviy axborot vositalari, jurnalistlarning milliy-etnik mavzuni yoritishdagi harakatlarini tartibga soluvchi normalar ishlab chiqilmagan, bu kamchilikni bartaraf etish orqali ham o‘rganilayotgan muammoni yechimini osonlashtirish mumkin. Ommaviy axborot vositalarida etno-milliy va etno-konfessional mavzularni yorituvchi jurnalistlar bu sohaga oid alohida malaka va bilimga ega bo‘lishlari lozim, yanada aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak jurnalistikaning yangi tarmog‘i etnojurnalistikaning rivoji uchun zamin yaratilishi maqsadga muvofiq. Jurnalistlar turli darajadagi obro‘li shaxslardan intervyularni olishda, siyosiy yetakchilar etno-milliy mavzularda chiqishlar qilayotganda irqiy, milliy diskriminatsion xarakterga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan fikrlarni, so‘zlarni anglay olishlari lozim.

Milliy siyosat sohasidagi vaziyatni xolis yoritish muammosi reallikdan orqada qolmasligi lozim. Qozog‘istonlik tadqiqotchi Sanjar Bokayev fikricha, polietnik mamlakatlardagi ommaviy axborot vositalari yuzaga kelayotgan millatlararo munosabatlar muammolarini doim ham yoritib boravermaydi. Bu ommaviy axborot vositalarida ishonchli ma’lumotlarning yetishmasligi yoki ushbu mavzu bo‘yicha ba’zi voqealarni to‘g‘ri sharhlay oladigan malakali mutaxassislarning mavjud emasligi bilan bog‘liq. Ba’zan siyosiy elita konfliktlarni yoritish, muammolarni oshkora o‘rganish jamoatchilikni bezovta qilishi hamda jahon hamjamiyatini diqqatini tortishidan xavfsirab milliy-etnik muammoni yoritishni taqiqlaydi (Bokayev, 2:2). Shunday vaziyatda ma’lumotlar tarqalishi mish-mishlar asosida ro‘y beradi hamda muammoning asl sabablari, jarayonning o‘zi buzib ko‘rsatiladi, natijada destruktiv kuchlar muammodan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanishga erishadilar. Milliy mojarolarni yoritishda ommaviy axborot vositalari asosiy e’tiborni nizolarning o‘ziga emas, balki ularning tashabbuskorlari va asosiy ishtirokchilariga qaratish kerak.

Dunyodagi har bir millat o‘zini boshqa millatlardan farqlab turuvchi o‘zigaxosligi bor deb tasavvur qiladi. Bunday tafakkur barcha etno-milliy ziddiyatlarning tagzaminidan joy oladi. Tafakkurning bunday shakli to‘g‘ri, lekin uning ijobiy va salbiy tomonlari ham bor. Polietnik davlatlarda ommaviy axborot vositalari milliy va etnik mavzularni yoritar ekan ana shu ijobiy yoki salbiy tomonlarni albatta inobatga olishi kerak.

Shunda ommaviy axborot vositalari o‘zining konstruktiv funksiyasini tom ma’noda ado etishga erishadi, muayyan mamlakatlarning siyosiy barqarorligiga tahdidning oldi olinadi, jamiyatda barqaror ijtimoiy-siyosiy muhit hukmron bo‘ladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, etno-milliy mojarolar jarayoni bilan bog‘liq tadqiqotlarning tahlili ommaviy axborot vositalarida bunday mojarolarni yoritishda jurnalistlar jamoasi o‘zlarining faoliyatini huquqiy asoslari, jurnalistik faoliyat prinsiplariga tayangan holda voqealarga baho beradilar. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatini mamlakat milliy qonunchiligi bilan bir qatorda xalqaro huquqiy hujjatlar ham tartibga soladi. Lekin polietnik mamlakatlardagi milliy mojarolar paytida jurnalistik etika, ommaviy axborot senzurasi, o‘z-o‘zini senzura qilish amaliyoti ham qaysidir darajada foydali bo‘lishini rad etmaslik kerak. Etno-milliy konfliktlarning liderlari o‘z faoliyatiga siyosiy tus berish orqali imkoni boricha o‘zlarini ko‘pchik omma tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga erishish uchun kurashadilar. Ommaviy axborot vositalari esa etno-milliy konfliktlarni yoritish orqali ba’zan ana shu maqsadni amalga oshirishga hissa qo‘shadilar. Etno-milliy konfliktlar muayyan vaqt davomida rivojlanib boradi. Ommaviy axborot vositalari ana shu davr oralig‘ida konfliktning barqarorlashuv tomonga qarab ketayotganida shunga mos ravishda, beqarorlashuv tomonga ketayotganida esa uning salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida axborotni yetkazishga intilishi maqsadga muvofiq. Jurnalistlar tomonidan etno-milliy konfliktlarni oqilona yoritish strategiyasini qo‘llanilishi natijasida ularning tinch jarayonga kirishini ham ehtimoli baland, aks holda qarama-qarshi tomonlar o‘rtasidagi muzokaralar izdan chiqishi, siyosiy vaziyat batamom murakkab holatga tushishi ham mumkin. Shuning uchun jurnalistlarning etno-milliy nizolarni yoritish amaliyotini alohida o‘rganishlari, konfliktlar amalga oshgan hududlardagi hamkasblarini tajribalarini o‘rganishlari muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda ham millatlararo munosabatlarni yanada barqarorlashtirish, millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirish, davlat tizimi va fuqarolik jamiyatining barcha bo‘g‘inlari, siyosatchilar va jamoat tashkilotlari rahbarlarini millatlararo nizolarning oldini olish bo‘yicha sa’y-harakatlarini muvofiqlashtirish mamlakatning bundan keyingi taraqqiyoti, xavfsizligining garovidir. Aynan shu maqsadga erishishda ommaviy axborot vositalari o‘zining asosiy rolini o‘ynashi va hech qanday milliy-etnik birliklar manfaatlarini buzmagan holda axborotni to‘g‘ri va xolis taqdim etib borishi kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ачкасов В. А. (2014). Этнополитология / учебник для бакалавров. Москва : Юрайт.
2. Бокаев С. Роль СМИ в создании «атмосферы мира и согласия» при освещении вопросов межэтнического характера. URL : https://online.zakon.kz/
3. Вершинина Н. В. Курдская проблема в современной Турции. URL : https://cyberleninka.ru/
4. Карымсакова Р. Д. (2010). Освещай, но не разжигай / пособие для журналистов. Алматы : Фонд «Әділ сөз».
5. Клусова Ю.Д. Освещение этноконфессиональных конфликтов в современной прессе Судана. URL : https://age-info.com/
6. Лихачев В. (2002). Язык вражды в оппозиционных политических периодических изданиях. Москва : Центр «Панорама».
7. Мальков В. К. Этничность и толерантность в современных российских СМИ. URL : https://eo.iea.ras.ru/
8. Морозова Е. В. Особенности возникновения турецкой журналистики и её взаимодействия с политической властью. URL : https://age-info.com/
9. Ростова Н. Первая телевизионная война. URL : http://www.yeltsinmedia.com/
10. Ртвеладзе Э. В., Сагдуллаев А. С. (2006). Современные мифы о далеком прошлом народов Центральной Азии. Ташкент : Узбекистан.
11. Савинов Л. Национальный вопрос в Турции. URL : https://www.google.com/
12. Тишков В. А., Шабаев Ю.П. (2011). Этнополитология: политические функии этничности. Москва : Издательство Московского университета.
13. Хубецова З. Ф. (2017). Политическая коммуникация. Теория, образования опыт. Москва : Смелый дизайн.
14. Чибиров Л. А. О причинах, вызвавших осетино-ингушское противостояние. URL : https://cyberleninka.ru/
15. Чудинов А. П. (2009). Современная политическая коммуникация. Екатеринбург : Уральский государственный педагогический университет.
16. Эсенов М. Роль СМИ в освещении этнической тематики на примере публикаций журнала «Центральная Азия и Кавказ». URL : https://cyberleninka.ru/
17. Осетино-ингушский конфликт. URL : https://ru.wikipedia.org/
18. (2015). СМИ к востоку от Гринвича. Век информации. // Сборник научных статей. 2015. № 4. Санкт-Петербургский государственный университет.

19. Cottle S. (2000). Ethnik Minorities and the Media: Changing Cultural Boundariyes. Buckingham Open University Press. URL : https://www.researchgate.net/
20. Lolagul Kallixanova wasiyati. URL : https://www.youtube.com/
21. Teun A. van Dijk. New(s) racism: A discourse analytical approach. URL : https://discourses.org/
22. Myurrey D. Northern Ireland Chronicle – The Political Beat. URL : https://www.bbc.co.uk/
23. An “army” of illegal immigrants is arriving in the UK every year. URL : https://www.migrationwatchuk.org/

REFERENCES:

1. Achkasov V. A. (2014). Etnopolitologiya: uchebnik dlya bakalavrov. Moskva : Yurayt.
2. Bokayev S. Rol SMI v sozdanii «atmosferi mira i soglasiya» pri osveshenii voprosov mejetnicheskogo xaraktera. URL : https://online.zakon.kz/
3. Vershinina N. V. Kurdskaya problema v sovremennoy Turtsii. URL : https://cyberleninka.ru/
4. Karimsakova R. D. (2010). Osveshay, no ne razjigay / Posobiye dlya jurnalistov. Almati : Fond «Ədil sөz».
5. Klusova Yu.D. Osvesheniye etnokonfessionalnix konfliktov v sovremennoy presse Sudana. URL : https://age-info.com/
6. Lixachev V. (2002). Yazik vrajdi v oppozitsionnix politicheskix periodicheskix izdaniyax. Moskva : Sentr «Panorama».
7. Malkov V. K. Etnichnost i tolerantnost v sovremennix rossiyskix SMI. URL : https://eo.iea.ras.ru/
8. Morozova Ye. V. Osobennosti vozniknoveniya turetskoy jurnalistiki i yeyo vzaimodeystviya s politicheskoy vlastyu. URL : https://age-info.com/
9. Rostova N. Pervaya televizionnaya voyna. URL : http://www.yeltsinmedia.com/
10. Rtveladze E. V., Sagdullayev A. S. (2006). Sovremenniye mifi o dalekom proshlom narodov Sentralnoy Azii. Tashkent: Uzbekistan.
11. Savinov L. Natsionalniy vopros v Turtsii. URL : https://www.google.com/
12. Tishkov V. A., Shabayev Yu.P. (2011). Etnopolitologiya: politicheskiye funksii etnichnosti. Moskva : Izdatelstvo Moskovskogo universiteta.
13. Xubetsova Z. F. (2017). Politicheskaya kommunikatsiya. Teoriya, obrazovaniya opit. Moskva : Smeliy dizayn.
14. Chibirov L. A. O prichinax, vizvavshix osetino-ingushskoye protivostoyaniye. URL : https://cyberleninka.ru/
15. Chudinov A. P. (2009). Sovremennaya politicheskaya kommunikatsiya. Yekaterinburg : Uralskiy gosudarstvenniy pedagogicheskiy universitet.
16. Esenov M. Rol SMI v osveshenii etnicheskoy tematiki na primere publikatsiy jurnala «Sentralnaya Aziya i Kavkaz». URL : https://cyberleninka.ru/
17. Osetino-ingushskiy konflikt. URL : https://ru.wikipedia.org/
18. SMI k vostoku ot Grinvicha. Vek informatsii. Sbornik nauchnix statey. 2015. № 4. Sankt-Peterburgskiy gosudarstvenniy universitet.
19. Cottle S. (2000). Ethnik Minorities and the Media: Changing Cultural Boundariyes. Buckingham Open University Press. URL : https://www.researchgate.net/
20. Lolagul Kallixanova wasiyati. URL : https://www.youtube.com/
21. Teun A. van Dijk. New(s) racism: A discourse analytical approach. URL : https://discourses.org/
22. Myurrey D. Northern Ireland Chronicle – The Political Beat. URL : https://www.bbc.co.uk/
23. An “army” of illegal immigrants is arriving in the UK every year. URL : https://www.migrationwatchuk.org/